

DAVLAT QARZI VA UNING SALBIY OQIBATLARI

Sa'dullaev Oybek Turdiali o'g'li

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali
"Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kafedrasida katta o'qtuvchisi"

Umrzoqov Jonibek Baxtiyor o'g'li

Toshkent kimyo-texnologiya instituti
Shahrisabz filiali iqtisodiyot yo'nalishi talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada davlat qarzining mohiyati, davlat qarzining mamlakat moliyaviy holatiga ta'siri, davlat qarzlarini samarali boshqarish masalalari o'rganilgan. Shuningdek O'zbekiston Respublikasining davlat qarzining hozirgi holati dinamikasi va qarzlarga xizmat ko'rsatish xarajatlari tahlil qilingan hamda davlat qarzlarini boshqarish mexanizmlarini jahon standartlariga olib chiqish va zarur bo'lgan strategiyalar ishlab chiqish yo'llari bo'yicha mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: davlat krediti, davlat qarzi, Yuqori soliqlar, Investitsiyalarning qisqarishi

АННОТАЦИЯ

В этой статье рассматриваются вопросы, связанные с сущностью государственного долга, влиянием государственного долга на финансовое состояние страны, эффективным управлением государственным долгом. Также было проанализировано текущее состояние государственного долга Республики Узбекистан, динамика и расходы на обслуживание долга, а также обсуждались пути приведения механизмов управления государственным долгом к мировым стандартам и разработки необходимых стратегий.

Ключевые слова: государственный кредит, государственный долг, высокие налоговые ставки, сокращение инвестиций.

ANNOTATION

This article discusses the nature of public debt, the impact of public debt on the country's financial situation, and the issues of effective public debt management. The current state of the state debt of the Republic of Uzbekistan was also analysed, and the costs of servicing the debt were analyzed, and reflections were made on how to bring the mechanisms for managing the state debt to world standards and develop the necessary strategies.

Key words: *government loans, government loans, high taxes, shortening of investments*

Kirish

Iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlik mamlakatlarning asosiy xavotiriga aylanishi ortida dunyodagi hukumatlar katta sarmoyaviy loyihalarni moliyalashtirish va odamlarning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish uchun qarz olishdi. Natijada, ko'pincha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat qarz darajasi o'sib borayotgani ta'kidlanadi, bu oxirgi ikki yoki uch o'n yillikda global iqtisodiyotning o'sishi ortida yetakchi harakatlantiruvchi kuchlardan biri ekanligi ta'kidlandi. Jahon iqtisodiyotining kengayishida davlat qarzining o'sib borayotgan darajasi muhim rol o'ynagan bo'lsada, davlat qarzi portfellarida murakkab moliyaviy tuzilmalarni o'z ichiga olganligi va dunyoning turli mintaqalarida sodir bo'lgan qarz inqirozlari bilan birga katta moliyaviy va operatsion risklar mavjudligi uning jiddiy muammo ekanligini ko'rsatadi va hukumatlar uchun qarzni boshqarishning to'g'ri amaliyotini qo'llashni taqozo etadi

Davlat qarzi - bu davlat bo'linmasi tomonidan qonun bilan belgilangan da'volar egalariga muayyan vaqt oralig'ida ma'lum pul summalarini to'lash majburiyati. Kreditorlar oldidagi qarz summolari qarzdor davlatning standart pul birliklarida yoki tashqi valyuta birliklarida belgilanishi mumkin. Amerika Qo'shma Shtatlarining davlat qarzi, asosan, federal hukumatning kreditorlarga AQSh dollarining ma'lum summalarini to'lash majburiyatini ifodalaydi. Boshqa tomondan, davlat qarzlari va mahalliy qarzlar asosiy qarzni qaytarish yoki ikkalasini ham to'lashdan iborat bo'lishi

mumkin. Qarzning o'ziga xos masalalari aniq muddatlar jadvallari bilan tavsiflanishi mumkin yoki bo'lmazligi mumkin. Abadiy foizlarni to'lash majburiyatini ifodalovchi konsollar asosiy arzni qaytarish majburiyatini o'z ichiga olmaydi. Davlat qarzining kelib chiqish sabablari, uning miqdoran oshib yoki kamayib borishi har bir mamlakatning iqtisodiy siyosati, islohotlar qamrovi va dinamikasi bilan uzviy bog'liq. Keyingi o'n yillikda dunyo mamlakatlarida tashqi qarzga bo'lgan talab nisbatan oshganligi hamda davlatlar o'rtasida bu borada tafovutlar kuchayganligining bir qancha sabablari bor.

Qarz olish hukumat uchun turli loyihalar va tashabbuslarni moliyalashtirish odatiy hol bo'lsa-da, to'g'ri boshqarilmasa, salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Haddan tashqari davlat qarzining salbiy oqibatlaridan ba'zilari:

1. Foizlarni to'lash: Hukumat qarz bo'yicha foizlarni to'lash uchun byudjetning muhim qismini ajratishi kerak. Bu sog'liqni saqlash, ta'lim va infratuzilmani rivojlantirish kabi muhim davlat xizmatlari uchun ajratiladigan mablag'lar miqdorini kamaytiradi.

2. Investitsiyalarning qisqarishi: Davlat qarzining yuqori darajasi xususiy investitsiyalarni to'xtatib qo'yishi mumkin, chunki bu foiz stavkalarining oshishiga olib keladi va xususiy sektordan qarz olishni cheklaydi. Bu iqtisodiy o'sish va ish o'rinlari yaratishga to'sqinlik qilishi mumkin.

3. Moliyaviy beqarorlik: Haddan tashqari davlat qarzi moliyaviy beqarorlikka olib kelishi mumkin. Agar investorlar hukumatning o'z qarzini to'lash qobiliyatiga ishonchini yo'qotsa, ular yuqori foiz stavkalarini talab qilishlari yoki hatto kredit berishdan bosh tortishi, moliyaviy inqirozga olib kelishi mumkin.

4. Yuqori soliqlar: Qarzni to'lash uchun hukumatlar soliqlarni oshirish yoki tejamkorlik choralarini qo'llashi mumkin, bu esa soliq to'lovchilarni og'irlashtirishi va ixtiyoriy daromadni kamaytirishi mumkin.

5. Kreditorlarga qaramlik: Hukumat chet el kreditorlari oldida katta qarzdor bo'lib qolsa, u o'zining suvereniteti va qarorlar qabul qilish avtonomiyasini buzishi mumkin, chunki bu kreditorlar shartlar qo'yishi va siyosat tanlashga ta'sir qilishi mumkin.

6. Davlodlararo yuk: davlat qarzining yuqori darajasi kelajak avlodlarga to'lov mas'uliyatini yuklashi, ularning o'z ustuvorliklari va rivojlanishiga sarmoya kiritish imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, qarz munosabatlari dunyodagi juda ko'plab mamlakatlarga xos bo'lib, uning ildizlari qadimgi davrlarga borib taqaladi. Qadimgi zamonlarda odamlar urug'larni sotib olish uchun qarz olgan, qarzni esa hosilni yig'ib olgandan keyin qaytarishgan. "Hozir ham banklar va kreditorlar kelajak taraqqiyot uchun urug'lar ekishda muhim rol o'ynamoqda. Shu bilan birga tarix hech narsa bilan kafolatlanmagan kredit ajiotaji jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga olib kelgani kabi qarz berishning salbiy tomonlarini ham biladi. Bunday muammolardan qochish uchun qarz olishga e'tiborliroq bo'lish hamda uning o'rniga investitsiyalarga ko'proq ahamiyat berish zarur"¹ Tashqi qarz "oldi-berdi"si jahon amaliyotida keng qo'llanilib kelayotgan moliyaviy vositalardan bo'lib qolayotganligiga qaramasdan davlat byudjeti kamomadini to'ldirishda undan foydalanishning xavf-xatarlarini ham xolisona e'tiborga olish lozim. Rivojlanayotgan davlatlar uchun tashqi qarz ulushining keskin ko'tarilishi xalqaro moliyaviy tuzilmalarga nisbatan iqtisodiy va siyosiy qaramlikni keltirib chiqarishi yoki kuchaytirishi mumkin. Shuningdek, qarz miqdorining ko'payishda davom etishi davlat tomonidan qarzlarni qaytarishda byudjet yukining ortib borishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, korporativ qarzlarning ichki va tashqi bozorlardan jalb qilinishi hamda samarasiz loyihalarga sarflanishi yoki makroiqtisodiy konyunkturaning (masalan, inflyatsiya darajasi, iqtisodiy o'sish sur'ati, milliy valyuta kurslari) keskin o'zgarishi natijasida iqtisodiyotda salbiy holatlar yuzaga keladi. Bu esa, o'z navbatida, har bir mamlakat o'z milliy strategiyasi orqali davlat qarzining optimal miqdorini belgilashini taqozo etadi.

Davlatimiz so'ngi ikki yil ichida qancha qarz olganligini ko'rib chiqamiz . 2022 yil davomida O'zbekiston davlat qarzi 2,9 mlrd dollarga ko'payib, 29,2 mlrd dollarni yoki YaIMga nisbatan 36,4 foizni tashkil etdi. Davlat qarzining 90 foizdan ortiq qismi

¹ <https://www.imf.org/en/News/Articles/2019/11/07/sp110719-how-to-usedebt-wisely>

xorijiy valutada jalb qilingan. 2023 yilning 1 yanvar holatiga O‘zbekistonning davlat qarzi 29,2 mlrd dollarga yetdi. Bu – mamlakat tarixidagi eng yuqori ko‘rsatkichdir. ¹



2023-yil yanvar oyidagi ma'lumotlar grafigi

O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda infratuzilma loyihalarini amalga oshirish ko‘lami doimo o‘sib boruvchi xarakterga ega. Bu kabi vazifalarni amalga oshirish uchun davlatda 2 ta muqobil yechim mavjud: soliqlarni oshirish yoki tashqi qarz va investitsiya mablag‘larini jalb qilish. Soliqlarni oshirish istiqbolda iqtisodiyotni rivojlantirish rag‘batlariga putur yetkazishi hisobga olinsa, ko‘plab rivojlangan davlatlar ikkinchi yo‘lni tanlashni afzal ko‘rishadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

A.Pienkowskining davlat qarzi va qarz strukturaviy tuzilishiga bag‘ishlangan ilmiy ishi davlat qarzlarning barcha uchun birday qabul qilish mumkin maksimal chegarasi mavjud emasligi, aksincha bu ko‘rsatkichlar rivojlangan, rivojlanayotgan va quyi darajada rivojlangan davlatlar uchun birmuncha farq qilishini isbotlaydi. Uning

¹ DAVLAT QARZI UNI BOSHQARISH ZARURLIGI VA DOLZARBLIGI maqolasi 1-2 bet

asosiy tavsiyalari orasida daromadi nisbatan past darajadagi davlatlar qarzlarni milliy valyutada olishlari maqsadga muvofiq bo'lsa, rivojlangan davlatlar qarzining maksimal darajasini oshirish uchun YaIMga bog'langan davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarishni tavsiya etadi.¹ P.Leao o'zining yuqori qarz darajasi haqiqatan ham muammo yoki yo'qligini tahlil qilgan maqolasida davlat qarzining yuqori darajasining soliq yuki oshishiga ta'siri, davlatning defolt holatiga tushib qolishi va inflyatsiyaga olib keluvchi ta'sirini kamaytiruvchi davlat fiskal siyosati mexanizmlarini ishlab chiqishni taklif qiladi². E.Bequiraj va S.Fedeli tomonidan Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkilotiga a'zo 21 ta mamlakat hukumatlarning qarz/YaIM nisbatining oshib borishiga munosabatlarini o'rganishdi. Agar qarz yuki oshib boraversa, davlatlar bunga javoban qanday to'g'irlovchi choralar ko'rishini mumkinligini, qarz va defitsit o'rtasidagi korrelyatsiyani tadqiq qilishgan.³ Davlat qarzining mazmun-mohiyatidan kelib shuni aytishimiz mumkinki, qarz yuki oshayotgan mamlakatlar tezroq siyosiy iroda ko'rsatgan holda qarzlarning moliyaviy va iqtisodiy barqarorlikka ijobiy va salbiy ta'sirlari modellarini ishlab chiqishi maqsadga muvofiqdir .

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Davlat qarzlarni boshqarish va u bilan bog'liq risklarni oldini olish keng qamrovli huquqiy, iqtisodiy va texnologik asoslar orqali amalga oshiriladi. Davlat qarzini boshqarishdan asosiy maqsad davlat tomonidan mablag' jalb qilish hisobidan O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti taqchilligini qoplashga, shuningdek, ijtimoiy va infratuzilma loyihalar hamda rivojlanish davlat dasturlarini moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyojni hamda davlat qarziga xizmat ko'rsatishni o'z vaqtida eng maqbul xarajat va xatar darajasi evaziga ta'minlash, davlat qarzining o'rtacha so'ndirish muddatini uzaytirish hamda valyutalar va manbalari bo'yicha diversifikatsiya qilish, davlat tomonidan O'zbekiston Respublikasi valyutasida

¹ Pienkowski A. Debt Limits and the Structure of Public Debt // Journal of Globalization and Development, vol. 8, no. 2, 2018, pp. 20170018. <https://doi.org/10.1515/jgd-2017-0018>.

² Pedro L. Is a very high public debt a problem? // Levy Economics Institute of Bard College, Annandale-on-Hudson, NY. No. 843, 2015

³ Elton B., Silvia F. Public debt sustainability: An empirical study on OECD countries // Journal of Macroeconomics, vol. 58 (2018) 238-248.

mablag‘ jalb qilish amaliyotini kengaytirish, davlat qarziga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq xatarlarni oldini olish, bartaraf etish yoki kamaytirishdan iboratdir. Davlat qarzini boshqarish quyidagi operatsiyalarni amalga oshirishdan iborat:

- ✓ davlat qarzini boshqarish strategiyasini ishlab chiqish;
- ✓ davlat tomonidan mablag‘ jalb qilish;
- ✓ davlat tomonidan jalb qilingan mablag‘larni boshqarish;
- ✓ davlat qarzi bilan bog‘liq xatarlarni boshqarish;
- ✓ davlat qarzini restrukturizatsiya qilish;
- ✓ davlat tomonidan jalb qilingan mablag‘larni qaytadan kreditlash;
- ✓ davlat kafolatini rasmiylashtirish va taqdim etish;
- ✓ davlat qarzi shartnomalari va davlat kafolatlari, shu jumladan bekor qilingan davlat kafolatlarining ro‘yxatini yuritish;
- ✓ davlat qarzining hisobi va hisobotini yuritish;
- ✓ davlat qarziga xizmat ko‘rsatilishini ta‘minlash va davlat kafolati bo‘yicha majburiyatlarni bajarish.

Davlat qarzining mazmun-mohiyatidan kelib chiqib gapiradigan bo‘lsak, davlat qarzi har qanday bozor iqtisodiyoti va ochiq bozor yo‘lini tanlagan mamlakatlarga xos bo‘lib, agar ulardan foydalanish ustidan to‘liq samarali nazorat olib borilsa, davlat qarzi iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qilgan holda aholi faravonligiga xizmat qilishi mumkin deya olishimiz mumkin. Bunga yaqqol misol sifatida Yaponiyaning iqtisodiy mo‘jizasini keltiramiz, ya’ni yaponlar o‘z hukumatlariga ishongan va yetarlicha qarz bergan.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, bugungi kunda dunyo mamlakatlari iqtisodiyotining bir-biriga bog‘liqligi ortib borayotgan bir sharoitda O‘zbekiston iqtisodiyotining ochiqligini ta‘minlash jarayonida davlat qarzi masalasi paydo bo‘laveradi. Sababi, iqtisodiy-ijtimoiy infrastrukturani rivojlantirish, zamonaviy

loyihalarni amalga oshirish, yangi texnologiyalarni joriy qilish qo‘shimcha investisiyalar jalb qilishni talab etadi. Ushbu sharoitda O‘zbekiston uchun tashqi qarz manbalari bilan birgalikda ichki manbalarni ko‘proq yo‘naltirishning zamonaviy mexanizmlarini ko‘zda tutuvchi ichki qarz bozorini rivojlantirish davlat qarzini boshqarish bo‘yicha ishlab chiqiladigan strategiyaning asosiy masalalari sifatida qaralishi lozim. Chunki davlat qarzi, ayniqsa, tashqi qarz risklar bilan bog‘liq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Botirjon o‘g‘li, M. B., Xasanboy, S. D., & Akmaljon o‘g‘li, A. X. (2022). ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA MEHNAT BOZORINING TA’SIRI. *PEDAGOGS jurnali*, 12(1), 4-10.
2. Botirjon o‘g‘li, M. B., & Hasanboy o‘g‘li, S. D. (2022). Organization and increase of activity of small industrial zones.
3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat qarzi holati va dinamikasi sharhi ma’lumotlari.
4. Shukurov, A. O., & Umarov, M. (2022). Davlat krediti va davlat qarzini samarali boshqarish. *Science and Education*, 3(11), 1107-1120.
5. Gafurova, S. M., G‘ulomova, M. S., Isakova, M. R., Ishmanov, N. A., & Kenjayeva, S. A. (2022). O‘zbekiston Respublikasi davlat qarzini boshqarishni takomillashtirish yo‘llari. *Science and Education*, 3(11), 1121-1135.